



## CIVIL-LEGAL NATURE OF ELECTRONIC CONTRACTS IN THE VIRTUAL ENVIRONMENT

Raimkulova Muxlisa Alisher qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20732754>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> June 2026

Accepted: 08<sup>th</sup> June 2026

Online: 09<sup>th</sup> June 2026

### KEYWORDS

Virtual environment,  
electronic contract, civil  
law, electronic commerce,  
digital transaction,  
electronic document,  
electronic digital  
signature, electronic  
evidence, information  
technology, civil-law  
relations.

### ABSTRACT

*This article provides a scientific, theoretical, and practical analysis of the civil-legal nature of electronic contracts concluded in a virtual environment. The rapid development of digital technologies and information and communication systems has significantly expanded the use of electronic transactions in civil-law relations, thereby increasing the need to determine the legal status of electronic contracts. The article examines the concept of electronic contracts concluded in virtual environments, their distinctive features, differences from traditional written contracts, and their place within the system of civil law.*

*Furthermore, the study analyzes the procedure for concluding electronic contracts and the legal significance of various means of authentication, including electronic digital signatures, electronic documents, e-mail communications, SMS codes, and other digital identification tools. The legal foundations of electronic contracts are examined based on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, as well as the Laws of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Commerce," "On Electronic Document Management," and "On Electronic Digital Signature."*

*In addition, the article discusses several legal issues arising in the conclusion and performance of electronic contracts, including the identification of contracting parties, the reliability of electronic evidence, and the fulfillment of obligations in a virtual environment. A comparative legal analysis of foreign countries' experiences in regulating electronic contracts is also conducted. Based on the findings, relevant proposals and recommendations are developed for improving national legislation in this area.*

## VIRTUAL MUHITDA ELEKTRON SHARTNOMALARNING FUQAROLIK- HUQUQIY TABIATI

Raimkulova Muxlisa Alisher qizi



**ARTICLE INFO**

Received: 02<sup>nd</sup> June 2026

Accepted: 08<sup>th</sup> June 2026

Online: 09<sup>th</sup> June 2026

**KEYWORDS**

*Virtual muhit, elektron shartnoma, fuqarolik huquqi, elektron tijorat, raqamli bitim, elektron hujjat, elektron raqamli imzo, elektron dalil, axborot texnologiyalari, fuqarolik-huquqiy munosabatlar.*

**ABSTRACT**

*Mazkur maqolada virtual muhitda tuziladigan elektron shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi natijasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarda elektron shakldagi bitimlardan foydalanish kengayib borayotgani elektron shartnomalarning huquqiy maqomini aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Maqolada virtual muhitda tuziladigan shartnomalarning tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari, an'anaviy yozma shartnomalardan farqli jihatlari hamda ularning fuqarolik huquqi tizimidagi o'rni yoritilgan.*

*Shuningdek, elektron shartnomalarning tuzilish tartibi, ularni tasdiqlash vositalari, xususan elektron raqamli imzo, elektron hujjat, elektron pochta, SMS-kod va boshqa raqamli identifikatsiya vositalarining huquqiy ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi hamda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlari asosida elektron shartnomalarning huquqiy asoslari o'rganilgan.*

*Bundan tashqari, maqolada elektron shartnomalarni tuzish va ijro etishda yuzaga keladigan ayrim huquqiy muammolar, jumladan taraflarni identifikatsiya qilish, elektron dalillarning ishonchliligi va virtual muhitdagi majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida elektron shartnomalarning huquqiy tartibga solinishiga oid qiyosiy-huquqiy tahlillar amalga oshirilgan hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Hozirgi globallashev va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy

yo'zma shakldagi shartnomalar bilan bir qatorda virtual muhitda tuziladigan elektron shartnomalar ham jamiyat hayotida keng qo'llanilmoqda. Elektron tijorat platformalari, internet-do'konlar, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari hamda turli raqamli xizmatlarning



rivojlanishi fuqarolik muomalasida elektron bitimlarning ulushini keskin oshirmoqda. Natijada shartnoma tuzish, uni tasdiqlash va ijro etish jarayonlarining asosiy qismi raqamlashib bormoqda. Masalan, birgina UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarning raqamli xizmatlar eksporti 2023-yilda ilk bor 1 trillion AQSh dollaridan oshib, 2024-yilda 1,17 trillion dollarga yetgan<sup>1</sup>. Mazkur raqamlar, raqamli iqtisodiyot va virtual shartnomaviy munosabatlarning jadal kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Virtual muhitda tuziladigan elektron shartnomalar zamonaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur shartnomalar taraflarning masofadan turib o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilashi, vaqt va xarajatlarni tejashi hamda iqtisodiy munosabatlarni soddalashtirishi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, elektron shartnomalarning huquqiy tabiati, ularni haqiqiy deb topish mezonlari, elektron tasdiqlash vositalarining yuridik kuchi hamda virtual muhitda yuzaga keladigan nizolarni hal etish masalalari amaliyotda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida elektron tijorat va elektron hujjat aylanishi tizimi izchil takomillashtirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi<sup>2</sup> doirasida raqamli iqtisodiyot va elektron

hukumat tizimi jadal rivojlanib, elektron imzo (E-IMZO), my.gov.uz platformasi, elektron tijorat va raqamli xizmatlar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini keng joriy etishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi hamda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlarda elektron bitimlar bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yilgan. Biroq virtual muhitda tuziladigan shartnomalarning fuqarolik-huquqiy mohiyatini aniqlash, ularning an'anaviy shartnomalardan farqli jihatlarini belgilash hamda elektron shakldagi bitimlarning ishonchliligini ta'minlash masalalari hanuz dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, fuqarolik sudlarida bitimlar bilan bog'liq nizolar 2023-yil davomida 158 548dona, 2025-yilning birinchi yarmining o'zidayoq esa, 102 768 tani tashkil etgan<sup>3</sup>ligi soha bo'yicha qonunchilik hujjatlarida ham qator bo'shliqlar borligini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi virtual muhitda tuziladigan elektron shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish hamda elektron shartnomalarni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq mavjud muammolarni o'rganishdan iborat.

<sup>1</sup> E-commerce and Digital Economy Programme Year in Review 2025. file:///C:/Users/user/Downloads/dtlecdief2026d1\_en.pdf

<sup>2</sup>

<sup>3</sup> Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 2025-yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari.

<https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2025-6.pdf>.



Tadqiqot davomida milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlar tajribasi va huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida elektron shartnomalarning huquqiy maqomi yuzasidan qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshiriladi. Shuningdek, maqolada virtual muhitdagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yuridik adabiyotlarda elektron shartnoma taraflarning axborot tizimlari orqali elektron shaklda tuziladigan hamda elektron hujjat ko'rinishida rasmiylashtiriladigan kelishuvi sifatida talqin qilinadi. Elektron shartnomalarning asosiy xususiyati shundaki, ular taraflarning bevosita uchrashuvisiz, masofadan turib tuziladi hamda raqamli texnologiyalar vositasida tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, shartnoma taraflarning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan kelishuvi hisoblanadi. Mazkur qoida elektron shartnomalarga ham to'liq tatbiq etiladi. Chunki elektron shartnoma ham o'zining huquqiy mohiyatiga ko'ra fuqarolik-huquqiy bitim sanaladi va taraflar o'rtasida muayyan huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Fuqarolik-huquqiy doktrinada shartnoma tushunchasiga nisbatan turlicha, biroq mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan bir qacha ta'riflar

shakllangan. Jumladan, *G.F. Shershenevich* shartnomani ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan yuridik munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki tugatishga qaratilgan kelishuvi sifatida talqin etadi<sup>4</sup>. *O.S. Ioffe* ham shunga o'xshash yondashuvni ilgari surib, shartnomani fuqarolik-huquqiy munosabatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga yo'naltirilgan kelishuv sifatida belgilaydi<sup>5</sup>.

Xususan, huquqshunos olim *Alan Davidson* o'zining *The Law of Electronic Commerce* asari asosida bugungi kun zamonaviy electron bitimlariga doir zarur tadqiqotlarni olib borgan bo'lib, uning fikriga ko'ra elektron bitimlarning huquqiy tabiatini belgilashda asosiy e'tibor elektron hujjatlarning yozma shaklga tenglashtirilishi hamda elektron imzoning yuridik kuchiga qaratilishi alohida qayd etiladi<sup>6</sup>. Ya'ni olim o'z qarashlari bilan electron bitimlar tuzilishini electron raqamli imzo bilan asoslaydi.

Ya'ni agar taraflar elektron shaklda shartnoma tuzish niyatini ifodalovchi har qanday electron harakatni amalga oshirsa, mazkur harakat asosida tuzilgan shartnoma electron shartnoma hisoblanib, huquqiy jihatdan qog'oz shaklda tuzilgan an'anaviy shartnomaga tenglashtiriladi<sup>7</sup>

Demak, shartnoma fuqarolik huquqining an'anaviy institutlaridan biri sifatida taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslangan o'zaro kelishuvni

<sup>4</sup> Шершеневич Г.Ф. Курс гражданского права. – Тула, Автограф, 2001

<sup>5</sup> Иоффе О.С. Избранные труды. В 4 т. / Отв. ред. Елисеев И.В. – Т. 3. – Обязательственное право. – СПб.: Юридический Центр Пресс, 2004.

<sup>6</sup> Alan Davidson, *The Law of Electronic Commerce*, Cambridge University Press, Cambridge, 2009, p. 79

<sup>7</sup> Alan Davidson, *The Law of Electronic Commerce*, Cambridge University Press, Cambridge, 2009, p. 78



anglatadi. Zamonaviy raqamlashtirish jarayonlari esa mazkur institutning virtual ko'rinishini shakllantirdi. Ayniqsa, elektron tijorat, smart-shartnomalar hamda onlayn xizmatlarning keng rivojlanishi natijasida virtual shartnomalar amaliy muomalada tobora keng qo'llanila boshladi. Bunday shartnomalarda ham shartnomaning asosiy huquqiy unsurlari saqlanib qoladi, biroq ularning tuzilish shakli va bajarilish mexanizmi an'anaviy shartnoma modellaridan ayrim jihatlari bilan farq qiladi.

Umuman olganda, tadqiqotlar elektron shartnomalarni alohida yangi turdagi shartnoma sifatida emas, balki an'anaviy fuqarolik-huquqiy majburiyatlarni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida rasmiylashtirishning takomillashgan shakli sifatida baholash tendensiyasi kuchli ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim mualliflar ularni elektron tijorat va axborot almashinuvi tizimining tarkibiy elementi sifatida talqin etadi. Bu esa mazkur sohada huquqiy tartibga solish va ilmiy yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish, yagona doktrinal asoslarni ishlab chiqish zarurligini dolzarb qilib qo'ymoqda.

Elektron bitimlarning huquqiy tabiati va ularning amal qilish mexanizmi xalqaro miqyosda **UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce** (1996) asosida shakllangan. Mazkur model qonun elektron shakldagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda fundamental manba sifatida e'tirof etiladi. Xususan, uning 5-moddasida

elektron ko'rinishdagi ma'lumotlarni (data messages) faqat elektron shaklda ifodalanganligi sababli qonuniy asosga ega emas deb topish qat'iy ta'qiqlangan bo'lib, mazkur norma elektron hujjatlarning an'anaviy yozma hujjatlar bilan teng huquqiy maqomga ega ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslaydi.

Shuningdek, mazkur model qonunning 7-moddasida elektron imzo institutining huquqiy maqomi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra elektron imzo shaxsni identifikatsiya qilish hamda uning huquqiy irodasini tasdiqlash imkonini beradigan vosita sifatida e'tirof etiladi<sup>8</sup>. Ushbu qoida elektron bitimlarning ishonchliligi va qonuniy kuchini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996) normalari elektron bitimlarni tuzish, tasdiqlash va ularning haqiqiylikini tan olish bo'yicha umumiy huquqiy tamoyillarni shakllantirib, milliy qonunchilik tizimlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Biroq amaldagi qonunchilikda "virtual shartnomalar" tushunchasiga aniq va mustaqil ta'rif berilmagan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 108 va 366-moddalarida xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, faks xabarlari hamda taraflarni va ularning xohish-irodasini ifodalovchi boshqa hujjatlar almashinuvi yozma shakldagi shartnoma

<sup>8</sup> UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce, 1996, with Guide to Enactment. United Nations, New York.



sifatida e'tirof etilishi nazarda tutilgan. Mazkur normalar orqali qonunchilikda virtual shartnoma institutiga bilvosita tarzda murojaat qilinganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyun sanasida 185-sonli qarori bilan tasdiqlangan **Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalariga** asosan, **elektron shartnoma** tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnoma ekanligi belgilangan. Bundan tashqari, mazkur Qaror bilan, axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtirilishi belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuniga asosan esa, **elektron savdo maydonchasi** — tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimidir.

Elektron shaklda tuziladigan shartnomalarda ularning huquqiy kuchga ega bo'lishi va taraflarning haqiqiy iroda ifodasini aniqlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda shartnomani tasdiqlash vositalari alohida o'rin tutadi.

Elektron shartnomalarning shakllanishida oferta va aksept institutlari muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgani kabi, virtual muhitda ham shartnoma tuzish jarayoni taraflardan birining taklifi (oferta) va ikkinchi

tarafning uni qabul qilishi (aksept) orqali amalga oshiriladi. Biroq elektron shakldagi shartnomalarda oferta va aksept odatda axborot tizimlari, internet platformalari yoki elektron aloqa vositalari orqali ifodalanadi.

Elektron oferta — bu muayyan shartlar asosida shartnoma tuzish taklifining elektron ko'rinishda, masalan, veb-sayt, mobil ilova yoki elektron pochta orqali bildirilishidir. Bunda oferta ommaviy yoki individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Elektron aksept esa taklif qilingan shartlarni elektron vositalar yordamida qabul qilishni anglatadi, masalan "rozi bo'lish", "tasdiqlash" tugmasini bosish yoki elektron imzo orqali rozilik bildirish shaklida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan elektron oferta va aksept an'anaviy huquqiy modelning raqamli shakli bo'lib, ularning mazmuni o'zgarmagan holda faqat ifodalanish usuli zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. Bu esa elektron shartnomalarning fuqarolik-huquqiy tabiatini klassik shartnoma institutining davomiy rivojlangan ko'rinishi sifatida baholash imkonini beradi.

Elektron shartnomalarda eng asosiy tasdiqlash vositasi elektron imzo bo'lib, u shaxsni identifikatsiya qilish va uning huquqiy roziligini ifodalash imkonini beradi.

Elektron imzo orqali hujjat mazmuni bilan tanishilganligi va unga rozilik bildirilganligi tasdiqlanadi, bu esa uni yozma shakldagi imzo bilan teng huquqiy kuchga ega qiladi.

Bundan tashqari, elektron shartnomalar elektron hujjat almashinuvi tizimlari orqali ham



tasdiqlanadi. Bunda shartnoma taraflar o'rtasida elektron pochta yoki maxsus axborot tizimlari orqali hujjatlarni yuborish va qabul qilish jarayonida shakllanadi. Elektron hujjatning yuborilishi va qabul qilinishi shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi muhim huquqiy fakt sifatida baholanadi.

Shuningdek, elektron muhitda shartnoma tuzilganligini tasdiqlashda qabul qilish (acknowledgement) va avtomatik tasdiqlash mexanizmlari ham muhim o'rin tutishi qayd etiladi. Bunda elektron xabarning qabul qilinganligi to'g'risidagi tizim javoblari yoki avtomatik tasdiqlash signallari shartnoma tuzilgan momentni aniqlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektron shartnomalarda taraflarni aniq identifikatsiya qilish va ularning haqiqiy roziligini aniqlash masalasi dolzarb muammo sifatida ko'rsatiladi. Elektron muhitda kim tomonidan shartnoma tuzilganini va rozilik bildirilganini aniqlash huquqiy aniqlikni talab etadi.

Umuman olganda, elektron shartnomalarni tasdiqlash tizimi yagona va universal ko'rinishda shakllanmagan bo'lib, turli texnik va huquqiy vositalar kombinatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bu esa elektron shartnomalar institutining yanada takomillashtirilishi va yagona huquqiy yondashuv ishlab chiqilishini talab etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, virtual muhitda tuziladigan elektron shartnomalar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning zamonaviy va jadal rivojlanayotgan shakli bo'lib, ular an'anaviy shartnoma institutining

funksional davomi sifatida namoyon bo'ladi. Elektron shartnomalar o'zining huquqiy mohiyatiga ko'ra taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslangan fuqarolik-huquqiy bitim bo'lib, ularning tuzilishida oferta, aksept, elektron hujjat va elektron imzo kabi huquqiy institutlar asosiy rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, elektron shartnomalarning huquqiy tabiati xalqaro huquqiy standartlar, xususan UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce qoidalari bilan uyg'unlashgan bo'lsa-da, milliy qonunchilikda "virtual shartnoma" tushunchasining aniq normativ ta'rifi mavjud emas.

Shuningdek, elektron shartnomalarni tuzish va tasdiqlash jarayonida identifikatsiya, elektron dalillarning ishonchliligi hamda taraflarning real iroda ifodasini aniqlash bilan bog'liq ayrim amaliy muammolar mavjudligi aniqlandi. Bu holat fuqarolik-huquqiy munosabatlarda huquqiy aniqlik va ishonchlilik darajasini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga "elektron shartnoma" yoki "virtual shartnoma" tushunchasining aniq huquqiy ta'rifini kiritish, ikkinchidan, elektron shartnomalarni tuzish, tasdiqlash va ijro etish jarayonlarini tartibga soluvchi yagona maxsus normativ hujjatni ishlab chiqish, elektron dalillarning (elektron pochta, messenjer yozishmalari, platforma yozuvlari) sudda isbotlash kuchini aniqlashtiruvchi protsessual normalarni takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
7. UNCITRAL. Model Law on Electronic Commerce, 1996, with Guide to Enactment. United Nations, New York.
8. E-commerce and Digital Economy Programme Year in Review 2025. [file:///C:/Users/user/Downloads/dtlecdeinf2026d1\\_en.pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/dtlecdeinf2026d1_en.pdf)
9. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 2025-yil 1-yarmidagi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari. <https://stat.sud.uz/assets/uploads/civil/pdf/civil-2025-6.pdf>.
10. Шершеневич Г.Ф. Курс гражданского права. – Тула, Автограф, 2001
11. Иоффе О.С. Избранные труды. В 4 т. / Отв. ред. Елисеев И.В. – Т. 3. – Обязательственное право. – СПб.: Юридический Центр Пресс, 2004.
12. Alan Davidson, *The Law of Electronic Commerce*, Cambridge University Press, Cambridge, 2009